



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 6-noyabr

624-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 526-6-0-Q/24-son qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son hamda shu mazmundagi viloyat hokimining 2024-yil 4-noyabrdagi 526-6-0-Q/24-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 4-noyabrdagi 526-6-0-Q/24-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 4-oktabrdagi 633-son qarori bilan: quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq:

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita) tuzilmasi, Qo‘mita hamda uning tizimidagi tashkilotlarning vazifa va funksiyalari;

Qo‘mitaning respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi;

Qo‘mita va uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini moliyalashtirish, xodimlarini moddiy rag‘batlantirish tartibi;

b) Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi huzuridagi Sanoat xavfsizligi sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq:

Sanoat xavfsizligi sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘larini (keyingi o‘rinlarda - Jamg‘arma) shakllantirish tartibi; Jamg‘arma mablag‘laridan foydalanish tartibi;

Jamg‘arma mablag‘larini xodimlarni moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy himoya qilishga yo‘naltirish tartibi tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi boshqaruv xodimlarining lavozim maoshini belgilashda Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan yagona tarif setkasi bo‘yicha mehnatga haq to‘lashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq tarif koeffitsiyenti 1,8 baravarga oshirilgan holda qo‘llanilishi;

Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi xodimlariga Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan uzluksiz ish staji uchun ularning umumiy mehnat faoliyatini qamrab olgan holda, faqat asosiy ish joyi bo‘yicha xodimning oylik maoshiga nisbatan 1 yildan 3 yilgacha - 30 foiz, 3 yildan 5

yilgacha - 60 foiz, 5 yildan 10 yilgacha - 75 foiz, 10 yildan 15 yilgacha - 100 foiz, 15 yil va undan ortiq - 150 foiz miqdorida ustamalar har oyda to'lanishi;

Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining hududiy boshqarmalari hududlardagi agentlik tasarrufidagi bo'sh turgan ma'muriy binolarga operativ boshqaruv huquqi asosida joylashtirilishini ta'minlash topshirilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 3-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi e'tiborga olinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov va tuman hokimining o'rinbosari H.Bo'ylarov zimmlariga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov